


## XII. BANDLIK VA MEHNAT BOZORI

2022- yil yanvar-dekabr oylarida bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ishga joylashtirishda yordam berishni so‘rab 51865 nafar fuqaro murojaat qildi. Ish qidirib murojaat etganlarning katta qismi Qarshi shahrida (4339 kishi), Koson (4165 kishi), Qamashi (4004 kishi), G‘uzor (3958 kishi), Qarshi (3715 kishi), Yakkabog‘ (3604 kishi), Chiroqchi (3563 kishi), Kitob (3430 kishi), Shahrisabz (3333 kishi) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga murojaat qilgan fuqarolardan 28321 nafari ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu ko‘rsatkich, Qarshi shahrida (2786 kishi), Koson (2578 kishi), Qamashi (2230 kishi), G‘uzor (2139 kishi), Qarshi (2023 kishi), Yakkabog‘ (1911 kishi), Kitob (1870 kishi), Chiroqchi (1864 kishi), Shahrisabz (1714 kishi), tumanlarida yuqori darajada bo‘ldi. O‘tgan davr mobaynida bandlikka ko‘maklashuvchi markazlarida ro‘yxatga olingan fuqarolardan 4393 nafari ishsizlik maqomini olgan.

Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni quyidagicha ifodalanadi:

**Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni**  
(kishi)



### Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etgan va ro‘yxatga olinganlar soni


(2023- yil 1- yanvar holatiga, kishi)

	<i>Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etganlar soni</i>		<i>jumladan, rasman ishsiz maqomini olganlar</i>		<i>ulardan, ishsizlik nafaqasi ajratilganlar soni</i>	
	<i>2021- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2021- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2021- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabr</i>
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>147 939</b>	<b>51 865</b>	<b>3847</b>	<b>4 393</b>	<b>731</b>	<b>1 688</b>
shaharlar:						
Qarshi	10707	4339	424	310	197	216
Shahrisabz	3374	2843	283	523	24	47
tumanlar:						
G‘uzor	7680	3958	214	357	131	62
Dehqonobod	10244	2947	276	239	84	224
Qamashi	14897	4004	378	388	22	160
Qarshi	26472	3715	723	207	3	156
Koson	4706	4165	117	40	155	165
Kitob	5178	3430	72	206	11	17
Mirishkor	1949	2347	57	301	11	81
Muborak	4816	2106	329	171	6	72
Nishon	5964	2476	180	435	14	68
Kasbi	19727	2866	181	174	13	138
Ko‘kdala	-	2169	-	73	-	35
Chiroqchi	22069	3563	259	172	28	94
Shahrisabz	4736	3333	202	464	25	72
Yakkabog‘	5420	3604	152	333	7	81



## Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etgan fuqarolarning hududlar kesimidagi ulushi

(jami murojaat qilganlarga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: 2022- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga murojaat qilib kelganlardan ro‘yxatga olinganlar ulushi Qarshi shahri va Koson, Qarshi, Shahrisabz, Chiroqchi, G‘uzor tumanlarida yuqori bo‘lgan.


## Ish bilan ta'minlangan aholi soni<sup>1)</sup>

	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>23 006</b>	<b>28 321</b>
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	3199	2786
Shahrisabz	1106	1293
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	2190	2139
Dehqonobod	903	1424
Qamashi	1307	2230
Qarshi	2387	2023
Koson	503	2578
Kitob	2593	1870
Mirishkor	242	1058
Muborak	1640	1208
Nishon	1882	1279
Kasbi	2044	1444
Ko'kdala	-	1500
Chiroqchi	905	1864
Shahrisabz	709	1714
Yakkabog'	1396	1911

<sup>1)</sup>Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari asosida



**Ish bilan ta'minlangan aholining hududlar kesimidagi ulushi <sup>1)</sup>**  
(jami ish bilan ta'minlanganga nisbatan ulushi, foizda)



**Izoh:** Ishga joylashtirilgan shaxslar soni Qarshi shahrida, Qarshi, Qamashi, Koson, Kitob, Chiroqchi, Shahrizabz va Yakkabog' tumanlarida yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin.

<sup>1)</sup>Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari asosida

## O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.** 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 952,6 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Qarshi shahrida 3 989,4 ming so‘m (Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 135,1 foiz), G‘uzor tumanida 3 579,4 ming so‘m (121,2 foiz) va Muborak tumanida 3 760,7 ming so‘m (127,4 foiz), Nishon tumanida 3 035,1 ming so‘m (102,8 foiz) ni tashkil etgan.


### Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad

*(2022- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*

	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad mlrd.so‘m	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
<b>Viloyat bo‘yicha jami</b>	<b>228659</b>	<b>8 101 ,6</b>	<b>2 952,6</b>
shu jumladan:			
Sanoat	25 399	1 425, 2	4 676,0
Qurilish	5 086	289,6	4 744,6
Savdo	1 994	64 ,2	2 681,1
Tashish va saqlash	7 459	368,2	4 113,7
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	184	4, 2	1 927,7
Axborot va aloqa	767	35 ,6	3 909,1
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	2 877	260, 8	7 554,2
Ta‘lim	106 418	2 962, 6	2 320,0
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	44 021	1 156,0	2 188,3
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 067	72, 8	2 935,8
Boshqa faoliyat turlari	32 387	1 366, 9	3 517,1

## O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)



Viloyat bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 952,6 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1991 % ga o'sgan.

O'rtacha ish haqining yuqori miqdorlari iqtisodiy faoliyat turlaridan Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilikda 7 554,2 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,6 barobarga yuqori), Qurilish sohasida 4 744,6 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 60,7 % ga yuqori), Sanoat sohasida 4 676,0 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 58,4 % ga yuqori), Tashish va saqlash sohasida 4 113,7 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 39,3 % ga yuqori) hamda Axborot va aloqada 3909,1 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 32,4 % ga yuqori) ekanligi kuzatildi.



**Qashqadaryo viloyati bo'yicha  
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik  
subyektlaridan tashqari, ming so'm)


	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>2 462,1</b>	<b>2 952,6</b>	<b>119,9</b>
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	3 348,1	3 989,4	119,2
Shahrisabz sh.	2 159,6	2 442,0	113,1
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	3 255,3	3 579,4	110,0
Dehqonobod	2 255,7	2 725,4	120,8
Qamashi	1 851,0	2 178,9	117,7
Qarshi	1 853,6	2 176,2	117,4
Koson	2 054,8	2 377,3	115,7
Kitob	1 840,9	2 375,7	129,0
Mirishkor	1 989,3	2 491,2	125,2
Muborak	2 984,1	3 760,7	126,0
Nishon	2 321,2	3 035,1	130,8
Kasbi	1 821,0	2 396,3	131,6
Ko'kdala	-	2 332,5	-
Chiroqchi	2 167,8	2 612,2	120,5
Shahrisabz	2 023,2	2 394,8	118,4
Yakkabog'	1 794,5	2 381,3	132,7




**Ish haqi.** 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quydagilarni ko'rsatmoqda.

**Ta'lim sohasida** 1725 ta mussasada 106 418 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,5 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 2 962,6 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 37,0 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 320,0 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 13,6 % ga o'sgan.

**Ta'lim iqtisodiy faoliyati bo'yicha  
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2022- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



**Hududlar**






**Sanoat** iqtisodiy faoliyat turida 45 ta korxonada 25399 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 11,1 % ni) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 366,9 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulishi 17,1% ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **4 676,0** ming so‘mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 18,1 % ga o‘sgan.

### Sanoat iqtisodiy faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘m)



Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya‘ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nishon tumanida 8 864,4 ming so‘mni (Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 189,6 % yuqori), G‘uzor tumanida 6 847,4 ming so‘mni (146,4 %), Dehqonobod tumanida 6 613,51 ming so‘mni (141,4%), Muborak tumanida 5 463,2 ming so‘mni (116,8%) etgan bo‘lsa, Kitob tumanida 2 781,9 ming so‘mni (59,3 %), Qarshi tumanida 2 772,1 ming so‘mni (59,3 %), Kasbi tumanida 2 419,1 ming so‘mni (51,7%) hamda Shahrisabz shahrida 2 355,6 ming so‘mni (50,4 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.



**Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish** sohasida 114 ta muassasada 44021 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 19,3 % ni) xodim ishlagan boʻlib ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 156,0 mlrd. soʻmni (jami ish haqi fondidagi ulushi 14,4 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 188,3 ming soʻmni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 24,9 % ga oʻsgan.

**Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish faoliyati boʻyicha oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2022- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming soʻmda)




Ushbu sohadagi oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi koʻrsatkichini Viloyat hududlari boʻyicha koʻradigan boʻlsak, Qashqadaryoda yaʼni oʻrtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Mirishkor tumanida 2 887,9 ming soʻmni (viloyatdagi oʻrtacha oylik ish haqiga nisbatan 132,0 %), Qarshi shahrida 2 654,3 ming soʻmni (121,3 %), Chiroqchi tumanida 2 505,5 ming soʻmni (114,5 %), Kitob tumanida 2 471,5 ming soʻmni (112,9 %), Muborak tumanida 2 433,1 ming soʻmni (111,2 %) va tashkil etgan boʻlsa, Shahrisabz shahrida 1 792,2 ming soʻmni (81,9 %), Qamashi tumanida 1 720,6 ming soʻmni (78,6 %), Nishon tumanida 1 638,4 ming soʻmni (74,9 %), Qarshi tumanida 1 536,7 ming soʻmni (70,2%) va Dehqonobod tumanida 1 338,8 ming soʻmni (61,2%), tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega boʻlmoqda.



**San'at, ko'ngil ochish va dam olish** iqtisodiy faoliyat turida 100 ta muassasada 2067 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,9 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 72,8 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,0 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 935,8 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 99,1 % ni tashkil etgan.


### San'at, ko'ngil ochish va dam olish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'mda)



Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha Qashqadaryoda ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Muborak tumanida 4 045,1 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 137,8 %), Qarshi shahrida 3 462,3 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 117,9 %) kuzatildi.

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati**  
(2022- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari % da)



**Sanoat**  
4 676,0



**Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik**  
7 554,2



**Qurilish**  
4 744,6



**Ta‘lim** 2 320,0



**Savdo**  
2 681,1



**Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish**  
2 188,3



**Tashish va saqlash**  
4 113,7



**San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish**  
2 935,8



**Axborot va aloqa**  
3 909,1



**Boshqa iqtisodiy faoliyat turlari**  
3 517,1